XALQ DEPUTATLARI BO'KA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 18-aprel VI-91-44-10-137-K/24 Bo'ka tumani

Tumandagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to'g'risida.

O'zbekiston Respublikasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonun (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-yil, 41-son, 448-modda) va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil16-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 295-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi direktorining o'rinbosari, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish ekspert komissiyasi raisi T.M.Abdullayevning 2023-yil 26-dekabrdagi 02-18-1956-sonli yig'ilish bayonnomasini va ekspert xulosasiga asoslanib, xalq deputatlari Bo'ka tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonun (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-yil, 41-son, 448-modda) va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 295-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi direktorining o'rinbosari, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish ekspert komissiyasi raisi T.M.Abdullayevning 2023-yil 26-dekabrdagi 02-18-1956-sonli yig'ilish bayonnomasini va ekspert xulosasi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Bo'ka tumani Kengashining "Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha" doimiy komissiyasining 2024-yil 1-martdagi yig'ilish qarori ma'qullansin.

3. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi U.Bayramovga:

O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi direktorining o‘rinbosari, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasi xulosasiga asosan tegishli choralari ko‘rilsin.

4. Mazkur qaror ijrosi tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi U.Bayramov, qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha" doimiy komissiyasi (O.Shadmankulova) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi

BEGMATOV
BAXTIYOR
PAXRIDDINOVICH

Xalq deputatlari Bo’ka tumani
Kengashining
2024-yil 18-apreldagi
VI-91-44-10-137-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qaror loyihasiga ilova

O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi direktorining o‘rinbosari, Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasi raisi T.M.Abdullayevning 2023-yil 26-dekabrdagi 02-18-1956-sonli yig‘ilish bayonnomasi va ekspert xulosasi

№	“Istiqlol” MFYdagi mavjud ko‘chalarning amaldagi nomlari	2023-yil 26-dekabrdagi 02-18-1956-sonli yig‘ilish bayonnomasini va ekspert xulosasiga asosan berilgan nom.
1	Nomsiz	Buyuk ihak yo‘li
2	Nomsiz	Ma’rifat
3	Nomsiz	Ma’rifat tor
4	Nomsiz	Taraqqiyot
5	Nomsiz	Porloq
6	Nomsiz	Vodiy
7	Nomsiz	Vodiy tor
8	Nomsiz	Oriyat
9	Nomsiz	Xurram
10	Nomsiz	Koxinur
11	Nomsiz	Barhayot
12	Nomsiz	Zamin
13	Nomsiz	Shodlik
14	Nomsiz	Vatan
15	Nomsiz	Birdamlik
16	Nomsiz	Birdamlik berk
17	Nomsiz	Yangi diyor
18	Nomsiz	Yangi diyor berk
19	Nomsiz	Xumo